



INFORMATION WARFARE AND METHODS OF POLITICAL MANIPULATION

B.T. Kuyliyev

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Senior Lecturer, Department of "Social Sciences, Pedagogy and Psychology",

Tashkent State Transport University (ToshDavTU)

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Information warfare, political manipulation, public opinion, disinformation, cyber propaganda, fake news, information security.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: The article analyzes modern political technologies used to shape and influence public opinion through information warfare in the global information space. It explores the historical roots of the concept of information warfare, its main principles and methods, as well as manipulative strategies implemented via digital platforms and mass media. The paper also examines the impact of phenomena such as cyber propaganda, disinformation, and fake news on public consciousness, and discusses methods of their detection. The study is aimed at analyzing the influence of contemporary information wars on both national and global security.

AXBOROT URUSHI VA SIYOSIY MANIPULYATSIYA USULLARI

B.T. Kuyliyev

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ToshDavTU "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya"

kefedrasi katta o'qituvchisi

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: axborot urushi, siyosiy manipulyatsiya, jamoatchilik fikri, dezinformatsiya, kiberpropaganda, feyk yangiliklar, axborot xavfsizligi.

Annotatsiya: Maqolada global axborot makonida axborot urushlari orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish va unga ta'sir ko'rsatishning zamonaviy siyosiy texnologiyalari tahlil qilinadi. Axborot urushi tushunchasining tarixiy ildizlari, uning asosiy tamoyillari va usullari, raqamli platformalar hamda ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan manipulyativ strategiyalar ochib beriladi. Shuningdek,

kiberpropaganda, dezinformatsiya, feyk yangiliklar kabi hodisalarning jamoatchilik ongiga ta'siri va ularni aniqlash yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqola zamonaviy axborot urushlarining milliy va global xavfsizlikka ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan.

ИНФОРМАЦИОННАЯ ВОЙНА И МЕТОДЫ ПОЛИТИЧЕСКОЙ МАНИПУЛЯЦИИ

Б.Т. Куйлиев

Старший преподаватель кафедры «Социальные науки, педагогика и психология»

Ташкентский государственный транспортный университет (ТошДавТУ)

Кандидат философских наук (PhD)

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Информационная война, политическая манипуляция, общественное мнение, дезинформация, киберпропаганда, фейковые новости, информационная безопасность.

Аннотация: В статье анализируются современные политические технологии формирования и влияния на общественное мнение посредством информационных войн в глобальном информационном пространстве. Раскрываются исторические корни понятия «информационная война», её основные принципы и методы, а также манипулятивные стратегии, реализуемые через цифровые платформы и средства массовой информации. Также рассматривается влияние таких явлений, как киберпропаганда, дезинформация и фейковые новости на общественное сознание и пути их выявления. Статья направлена на анализ влияния современных информационных войн на национальную и глобальную безопасность.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli inqilob sharoitida axborot oqimi keskin oshib, axborot texnologiyalari taraqqiyoti nafaqat insoniyat taraqqiyotini jadallashtirdi, balki yangi tahdidlarni — jumladan, axborot urushi xavfini yuzaga keltirdi. Axborot urushi — qurolli to'qnashuvlarsiz raqibni ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatdan izdan chiqarishga qaratilgan, axborot vositalari orqali olib boriladigan kurashdir. Unda asosiy maqsad jamoatchilik fikrini o'zgartirish, ijtimoiy kayfiyatni boshqarish kabi omillarni o'z ichiga oladi. Axborot urushi tushunchasi XX-asr oxirlarida keng qo'llanila boshlagan bo'lsa-da, uning ildizlari uzoq davra borib taqaladi. Sovuq urush davrida AQSh va SSSR o'rtasidagi ideologik qarama-qarshiliklar davomida axborot urushi unsurlari faol qo'llangan. Bugun esa raqamli platformalar, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, algoritmik filtrlash kabi vositalar ushbu jarayonlarni ancha murakkab va tezkor shaklga keltirdi. Shu sababli, axborot urushi va siyosiy manipulyatsiya usullarini o'rganish, ularning

mexanizmlarini tahlil qilish milliy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism. Axborot urushi tushunchasi bugungi kunning geosiyosiy muammolaridan bo'lib, u nafaqat davlatlararo raqobatda, balki ichki siyosiy jarayonlarda ham keng qo'llanilmoqda. Jumladan, ayrim siyosiy kuchlar, lobby guruhlar, transmilliy kompaniyalar o'z manfaatlarini ilgari surish uchun ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, bloggerlar va mashhur shaxslar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishga harakat qilmoqda. Buning uchun ular professional PR-agentliklar, tarmoq marketing mutaxassislari, kontent-kreatorlar xizmatidan foydalanib, axborot kampaniyalarini maxsus ssenariy asosida tashkil qiladi. Shu bilan birga, xalqaro tajribadan ma'lumki, axborot urushining asosiy belgilaridan biri bu dezinformatsiya tashuvchilarining global xarakterga ega bo'lishidir. Masalan, ayrim ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan yolg'on xabarlar qisqa vaqt ichida chegaralardan o'tib, boshqa mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu global axborot makonining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uni boshqarish, nazorat qilish va dezinformatsiyaga qarshi samarali choralar ko'rishni murakkablashtiradi. Bugungi axborot urushi strategiyalarida odamlarni virtual haqiqatga qamab qo'yish, ya'ni informatsion "pufak" yaratish keng qo'llanmoqda. Bunda algoritmlar foydalanuvchiga uning qiziqishlari va qarashlariga mos kontentni taklif qiladi, boshqa alternativ fikrlarni esa filtrlab, ko'rsatmaydi. Shu tarzda odamlar biryoqlama axborot oqimiga tushib qoladi, bu esa jamoatchilikni polarizatsiya qilishga — ya'ni ikki qutbga ajratishga olib keladi. Polarizatsiya siyosiy barqarorlikka tahdid soladi, chunki qarama-qarshi guruhlar o'zaro muloqotni to'xtatib, dushmanlik hissi kuchayadi.

Axborot urushi vositalaridan biri sifatida sun'iy intellekt yordamida yaratilgan "deepfake" texnologiyalari alohida xavf tug'diradi. Real voqealarga juda o'xshash, lekin soxta videolar odamlarni chalg'itib, noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Bunday texnologiyalar saylovlar, xalqaro muzokaralar, harbiy harakatlar paytida keng qo'llansa, jiddiy inqirozlar, siyosiy beqarorlik yoki hatto qurolli to'qnashuvlarga sabab bo'lishi mumkin. Axborot urushi doirasida raqib tomonning obro'sini tushirish strategiyasi ham keng tarqalgan. Bunda maqsadli shaxs yoki tashkilotga qarshi kompromat (nomuvofiq xatti-harakatlar, shaxsiy hayotga oid faktlar) topish, ulardan noto'g'ri kontekstdagi lavhalarni tarqatish orqali ishonchni yo'qotishga harakat qilinadi. Kompromatga asoslangan axborot kampaniyalari qisqa vaqt ichida katta rezonans uyg'otib, obro'ga putur yetkazadi. Axborot urushi davomida ko'pincha xalqaro huquq normalari buziladi: boshqa davlatning ichki ishlariga aralashish, milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi kontent yaratish, xalqaro tashkilotlarni chalg'itish, transchegaraviy axborot hujumlarini amalga oshirish — bularning barchasi xalqaro barqarorlikni izdan chiqaradi. Shu sababli ko'plab davlatlar va xalqaro tuzilmalar axborot urushi vositalarini tartibga solish, xalqaro huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish,

dezinformatsiyaga qarshi ko‘p tomonlama choralar ko‘rish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Ayni paytda, rivojlangan davlatlar qatorida zamonaviy axborot xavfsizligi siyosati doirasida ijtimoiy tarmoqlar kompaniyalari bilan hamkorlik qilish tajribasi shakllangan. Masalan, ayrim platformalarda feyk yangiliklarni aniqlash va belgilangandan so‘ng ularni keng auditoriyaga tarqatishni cheklash, foydalanuvchiga qo‘shimcha izoh berish amaliyoti mavjud. Biroq bu kabi choralar ayrim hollarda senzura sifatida qabul qilinib, so‘z erkinligi bo‘yicha keskin munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, axborot urushi sharoitida jamiyatning axborotga nisbatan mustaqil va tanqidiy yondashuvi asosiy “mudofaa chizig‘i” hisoblanadi. Odamlar ishonchli manbalardan foydalanishga, rasmiy axborotni tekshirishga, shubhali yangiliklarni tarqatmaslikka odatlanishi, axborot madaniyatini rivojlantirish — har bir fuqaroning axborot xavfsizligiga hissa qo‘shishidir. Shu nuqtayi nazardan, davlat tomonidan axborot xavfsizligini ta‘minlash bilan birga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mustaqil va sifatli ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash, jurnalistlarning professional darajasini oshirish, shuningdek, yoshlar orasida media savodxonlikni targ‘ib qilish axborot urushi xavfini kamaytirishning muhim shartidir.

Axborot urushi nafaqat maxsus xizmatlar va siyosiy elitalarning quroli, balki ko‘plab xalqaro kompaniyalar, yirik biznes strukturalar va hatto jamoaviy harakatlar uchun ham qulay vositaga aylangan. Chunki raqamli axborot vositalari orqali yetkazilgan xabarlar o‘quvchida osonlik bilan hissiy javob uyg‘otadi va tezda keng auditoriyaga tarqaladi. Bugun ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi xolis axborotni yetkazishdan ko‘ra, auditoriyani iloji boricha uzoqroq vaqt davomida o‘z platformasida ushlab turish va ko‘proq reklama ko‘rsatish orqali daromad olishga qaratilgan. Bu esa yangiliklar sifatini emas, balki shov-shuv va emotsional tusini ustuvor qiladi. Shu sababli manipulyatsiya va feyklar uchun qulay sharoit vujudga kelmoqda. Axborot urushi davomida kognitiv qurollanish — ya‘ni inson ongining zaif tomonlarini tahlil qilib, ulardan foydalangan holda maqsadli xabarlar yaratish — tobora asosiy texnologiyaga aylanmoqda. Kognitiv manipulyatsiya tushunchasi psixologiya, neyrofiziologiya va kommunikatsiya ilmlarining kesishgan nuqtasida shakllangan bo‘lib, unda diqqat, xotira, hissiyotlar, o‘rganilgan tajriba va avvalgi qarashlar asosida ma‘lumotni qayta ishlash jarayonlari hisobga olinadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda muayyan mavzu doimiy ravishda salbiy tusda yoritilsa, odamlar bu hodisa haqiqatan yomon ekaniga ishonib qoladi — bu effektini “kognitiv mustahkamlash” deyiladi. Axborot urushi nazariyalarini ishlab chiqqan olimlar (A.Toffler, N.Chomski, J.Nye va boshqalar) axborot asrida “yumshoq kuch” tushunchasi keskin o‘zgarib, propaganda va tashviqot mexanizmlarini o‘z ichiga qamrab olishini ta‘kidlagan. Masalan, Jozef Nayga ko‘ra, “axborot urushi bugungi gibril urushlarning asosiy qismiga aylangan, chunki u qurolli kuchlarni ishlatmasdan turib, raqib davlatni ichidan zaiflashtirish imkonini beradi”.

Bugungi axborot urushlarida asosiy e'tibor nafaqat yangiliklarga, balki ko'ngilochar kontentga qaratilmoqda. Seriallar, shoular, memlar, kliplar va hatto musiqalar orqali ham muayyan axborotlar, qadriyatlar yoki stereotiplar "yumshoq" shaklda singdiriladi. Bu jarayonlar "kultural infiltratsiya" (madaniy singdirish) deb atalib, u manipulyatsiyaning eng sezilmas, ammo eng ta'sirli shakli hisoblanadi. Masalan, ayrim mamlakatlarning kinosanoati orqali o'z tarixiy qahramonlarini ideallashtirish, yoki raqib davlatlarni salbiy ko'rsatish orqali xalqaro auditoriyada kerakli taassurot hosil qilinadi. Axborot urushlarida boshqa muhim strategiya — tahrirlangan statistik ma'lumotlardan foydalanishdir. Chunki raqamlar odamga ishonchli ko'rinadi, lekin ularni manipulyativ kontekstda ko'rsatish orqali xulosa noto'g'ri shakllantiriladi. Masalan, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, jinoyatchilik kabi ko'rsatkichlarni tanlab olish va noto'g'ri taqqoslash orqali jamoatchilikni chalkashtirish mumkin. Shuningdek, manipulyatorlar jamoatchilik e'tiborini boshqa muhim masalalardan chalg'itish uchun "axborot shovqini" strategiyasidan foydalanadi. Bunda yangiliklar oqimi sun'iy ravishda haddan tashqari ko'paytiriladi, asosiy voqealarni "mayda" yangiliklar orasida yo'qotish uchun ijtimoiy tarmoqlarda trendlar yaratiladi. Shu sababli, odamlar eng muhim voqeani tushunmay qolishi yoki unga yetarlicha e'tibor qaratmasligi ehtimoli kuchayadi. Ko'plab davlatlarda axborot urushiga qarshi kurashning asosiy yo'nalishlaridan biri — ijtimoiy tarmoqlar va OAV faoliyatini monitoring qilish, feyklarni fosh qilish, rasmiy faktchekning mustaqil tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Shuningdek, fuqarolarni internet madaniyati, shaxsiy axborot xavfsizligi, parol yaratish, fishing hujumlaridan himoya kabi mavzularda o'qitish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayrim mamlakatlar, masalan Singapur, 2019-yilda "Online Falsehoods and Manipulation Act" qabul qilib, feyk yangiliklarni tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik choralarini joriy etdi. Yevropa Ittifoqi esa 2022-yildan boshlab Digital Services Act orqali ijtimoiy platformalarga feyklar haqida hisobot berish va ularni o'z vaqtida olib tashlash majburiyatini yukladi. Shuningdek, AQShning ba'zi shtatlarida deepfake videolardan saylov kampaniyalarida foydalanishni taqiqlovchi mahalliy qonunlar qabul qilindi. Ammo bu choralar global axborot muhitidagi murakkablik va chegarasizlik tufayli yetarli emas. Shuning uchun xalqaro darajada axborot xavfsizligi sohasida ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlarini yaratish, jumladan YUNESKO, BMT va boshqa tashkilotlar doirasida axborot manipulatsiyasiga qarshi universal qoidalarni ishlab chiqish talab etilmoqda.

Xulosa. Axborot urushi va siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari zamonaviy siyosiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib, raqamli texnologiyalar rivoji bu jarayonlarni yanada tezkor, murakkab va ko'lamli qildi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda dezinformatsiya, feyk yangiliklar, kiberpropaganda, narativlar kurashi kabi usullar asosiy qurol sifatida qo'llanmoqda. Shuning uchun jamiyatning axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axborot xavfsizligi choralarini kuchaytirish orqali axborot urushiga qarshi immunitet

shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Aks holda, axborot urushi milliy birdamlik, ijtimoiy barqarorlik va siyosiy mustaqillikka jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brundage, M. et al. (2018). "The Malicious Use of Artificial Intelligence: Forecasting, Prevention, and Mitigation P.41
2. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power P.152
3. KUILIEV B. T. CHARACTERISTICS OF CONVERGENT POLITICAL MANIPULATION TECHNOLOGIES USED ON THE INTERNET //Вопросы политологии. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 1783-1790.
4. Woolley, S. C., & Howard, P. N. (2018). Computational Propaganda: Political Parties, Politicians, and Political Manipulation on Social Media. P.227
5. Kuyliyev B. T. RESEARCH OF STATE AND SOCIETY CATEGORIES IN THE FIELD OF SOCIAL SCIENCES //ДИСТАНЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ. – 2020. – Т. 144.
6. Vincent, J. (2018). "Deepfake videos could destroy trust in society." The Verge. P.